

IJODIY QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISHDA TOPISHMOQLARNING O'RNI

Baxronova Sarvinoz Akbar qizi

Buxoro innovatsion ta'lim va tibbiyot universiteti o'qituvchisi.

Haydarova Ozodaxon Murtazo qizi

Buxoro innovatsion ta'lim va tibbiyot universiteti,

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1395726>

Annotatsiya. Ushbu maqolada topishmoqlar xalqning turmush tarzi va qadimiy e'tiqodlari ifodasi bayon qilingan.

Kalit so'zlar: topishmoq, turi, tasnifi, predmetli topishmoq, xususiyat, ko'p predmetli, murakkab topishmoqlar.

THE ROLE OF PUZZLES IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITY

Abstract. In this article, riddles are an expression of people's lifestyle and ancient beliefs.

Key words: riddle, type, classification, object riddle, property, multi-object, complex riddles.

РОЛЬ ЗАГАДОК В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ

Аннотация. В данной статье загадки являются выражением образа жизни и древних верований людей.

Ключевые слова: загадка, тип, классификация, предметная загадка, свойство, многопредметность, сложные загадки.

Topishmoqlar xalq og'zaki ijodida alohida o'rinn tutadi. Folkloarning ta'sirida yozma adabiyotda ham topishmoq she'rlar yaratildiki, bu ayniqla, bolalar adabiyotida katta badiiy-estetik mohiyat kasb etadi. Bu janrning mohiyati metafora bilan bog'liq bo'lib, ularda topilishi lozim bo'lgan narsa-buyumning asosiy xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Qadimda topishmoqlar cho'pchak, topmachoq, matal, bayt, jumboq, topar kabi nomlar bilan yuritilgan. Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asarida ham xalq topishmoqlaridan bir qancha namunalar keltirilgan.

Topishmoqlarda xalq hayoti, turmush darajasi madaniyati va urf odati ma'lum ma'noda o'z ifodasini topadi, yechilishi mumkin bo'lgan so'roq majoziy shaklda ifodalanib, uning ma'nosi yashirincha bo'ladi. Bu janrda narsa yoki hodisa o'xshatish, o'zaro qiyoslash, taqqoslash orqali gavdalantiriladi. "Topishmoqlar" — 1981-yil chop etilgan o'zbekcha topishmoqlar to'plami.

To'plamni Zubayda Husainova tuzgan va nashrqa tayyorlagan. Kitob G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyotida chop etilgan. „Topishmoqlar“ avvalgi to'plamlardan hajm jihatdan ancha katta bo'lib, unda har xil turdag'i topishmoqlar berilgan. Topishmoqlar „O'zbek xalq ijodi“ ko'p jildli kitoblar seriyasiga kiritilgan 23-kitobdir. Kitob ikki qismga bo'lingan bo'lib, birinchi qismda an'anaviy topishmoqlar, ikkinchi qismda esa yangi topishmoqlar berilgan. Bundan tashqari, topishmoqlar javoblariga ko'ra tematik asosda tartiblashtirilgan. Tahrir hay'ati Komil Yashin, Sarvar Azimov, Marat Nurmuhamedov, Matyoqub Qo'shjonov, Hamid G'ulom, Muzayyana Alaviya, Shonazar Shoabdurahmonov, To'ra Mirzayev, Muhammad Ali, Solih Qosimov, Bahodir Sarimsoqovlardan iborat bo'lgan.

Topishmoq to‘rtlik shaklida bo‘lib, juft misralari qofiyalangan, so‘zlari sodda va ravon.

Bolalar tafakkuriga xos obrazlardan foydalangan. Topilayotgan narsa yoki buyumga xos xususiyatlari obrazli o‘xshatishlar asosida keltirilgan. Topishmoqning javobi - “Sovun”. Sovundan qancha foydalansak tanamiz poklanib boradi, shu asnoda u tugab boradi, go‘yo o‘zini yaxshilik yo‘lida fido etgan insonlar singari. Topishmoq zamirga ezgulik singdirilgan. Sovundan foydalanganimizda ba’zan qo‘lmizdan sirpanib tushib ketadi. Shoir bu holatni obrazli tarzda ajoyib “tesha tegmagan” o‘xshatish - “baqaga o‘xhab qochar” bilan ifoda etadi. Topishmoqlar ijtimoiy hayot va tabiat hodisalari bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, real voqelikka asoslanadi. Unda atrofimizni o‘rab turgan moddiy dunyodagi turli narsalar aks etadi. Har bir topishmoq o‘ziga xos shakl va mazmunga ega.

Topishmoqda falsafiy, tarixiy, etnografik tushunchalar, hodisalarning mohiyati nihoyatda go‘zal, obrazli iboralar bilan aks ettiriladi[4.B.28]. Topishmoqlar ikki kishi yoki jamoa o‘rtasida berilgan jumboqli savol-javob tarzida ham yaratiladi. A.Akbar qalamiga mansub topishmoqlar asosan “to‘rtlik” shaklida bo‘lib, mazmun jihatdan o‘ziga xos ohorli o‘xshatishlar, ta’rif, tavsifdan iborat. Tili ravon sodda, bola dunyoqarashiga mosdir. Shoirning topishmoqlari asosan ikki kishi - muallif vakitobxon o‘rtasidagi savol- javob tarzida yaratilgan. M.Sulaymonovning “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” uslubiy qo‘llanmasida “Topishmoq ijrosi uchun kamida ikki kishi, ikki guruh yoki topishmoq aytuvchi va uni yechuvchilar, javobni topuvchilar bo‘lishi kerak”,- deb fikr bildiradi[5.B.29]. An’anvaiy tarzda topishmoqlarning savol qismi tabiat, tabiat hodisalari, umuman har bir obyektga badiiy tus berilgan holda obrazli taqqoslash, o‘xshatish orqali jumboqlanadi. Javob qismi esa obrazlar orqali jumboqlangan obyekt - narsa yoki tabiat hodisalarining nomini aytib berish, ma’nosini topish, yashiringan jumboqni yechishdan iborat. Kunu tun parvona zamin boshida /Na damni bilishar, na olishar tin. Biriga qarasang ko‘zing qamashar /Biriga soatlab tikilish mumkin? (Quyosh va oy) Topishmoq tabiatning muhim unsuri quyosh va oy haqidadir. Savol qismida uning xususiyatlari obrazli tarzda, taqqoslash asosida ko‘rsatib beriladi. “Biriga qarasang ko‘zing qamashar” – quyoshning ta’rifi ya’ni xususiyati keltirilgan. Kitobxon shu ibora orqali javobini topa oladi. “Biriga soatlab tikilish mumkin” - iborasi orqali esa, topishmoqning ikkinchi javobi kelib chiqadi. “Ko‘zing qamashar”- “tikilish mumkin” so‘zleri bir-biriga zid ma’noli bo‘lib-tazod san’atini yuzaga keltirgan. Topishmoqlar tuzilishiga ko‘ra bir yoki bir necha predmetli bo‘ladi. Ushbu topishmoq bir necha savol va bir necha javobli (predmetli) topishmoqlar sirasiga kiradi. A.Akbar topishmoqlarining yana bir jihat shuki, ba’zi topishmoqlarining savol qismi oxirida so‘roq belgisi qo‘yilgan, lekin hech bir misrada so‘roq so‘zi ishlatilmagan. So‘roq ohangi yordamida aytligani uchun “so‘roq” tinish belgisi qo‘yilgan.

Bayroqchaman, bayroqcha / Rangim yam – yashil. Kuzga qadar xilpiray, / Shamol shafqat qil (barg) Topishmoq intoq san’ati asosiga qurilgan bo‘lib, o‘ziga xos o‘xshatish (bayroqchaman) bilan boshlanadi. Topilayotgan jumboqning xususiyatlari misralarda birma-bir, bosqichma-bosqich keltiriladi. Birinchi misrada shakli, ikkinchi misrada rangi, uchinchi misrada holati, to‘rtinchi misrada xulosa tarzda beriladi. Ikkinchi misrada nomi topilayotgan narsaning rangi beriladi “yam - yashil”.

Bolakaylar tafakkurida bunday o‘xshatish va tasvirlashlar orqali unga mos keluvchi narsalar bir-bir gavdalani va aniqroq tasavvurni yuzaga keltiradi. Yam - yashil so‘zi orqali “barg” xayolga keladi. 3-misradan esa fikrlari oydinlashib, haqiqatdan ham “barg”- yaproq ekanligini tushunadi. Sababi barg (hilpirab turishi) bayroqchaga o‘xshaydi, rangi yam-yashil, lekin bu yashillik kuzga qadar hilpiraydi, shamol esganda asta-sekin yerga tusha boshlaydi.

Bargning bayroqchaga o‘xshatilishi ajoyib badiiy topilmadir. Shu bilan birga tabiat qonunini (bargning umri kuzga qadar bo‘lishi) bolalar tafakkuriga xos tarzda berib o‘tadi. Tabiat, tabiat hodisalari va narsalarni bir - biriga o‘xshatish, taqqoslash orqali borliqni, undagi mavjud narsalarning mohiyatini teran anglashga katta yordam beradi.

Qop-qoradir / Jismimiz.

Charos erur / Ismimiz.

Tursunboy Adashboyevning “Osmon ko‘kmi, zangori”. To‘plamidagi “Bobo qancha yoshdasiz”, “Yetmay qoldi” topishmoq she’rlari esa matemaikaga oid bo‘lib, raqamlarni hisoblash yordamida topilishi kerak bo‘lgan jumboqni ifoda etgan:

- Bobo, kenja nabirangiz
- Necha yoshga chiqdi hozir?
- Kenjam Nazar,
- Men qanchaga chiqqan bo‘lsam,
- Shuncha oylik bo‘ldi, bo‘tam.
- Siz qanchaga chiqdingiz?
- Qaytib-qaytib so‘rar Javlon.
- Yetmish sakkiz yoshga chiqdik,
- Nabiramiz ikkovlon.
- Vuy, qiziq- a, xo‘sh qanday?
- Mening yoshim unikiga qo‘shganda...

Kim topadi Ro‘zmat bobo

- Qancha yoshga to‘lganligin?

Nabirasi Nazir esa – Necha oylik bo‘lganligin?

Topishmoqning tezis qismi Ro‘zmat bobo va Javlonning dialog asosidagi savol- javobi bilan boshlanadi. Ikki suhbatdoshning ismlari topishmoqning boshida berilmasdan, misralar tarkibida ya’ni, - yettinchi misrada Javlon, o‘n ikkinchi misrada, Ro‘zmat bobo ismlari keltirilgan bo‘lib, muallif nutqi orqali aytib o‘tilgan. Antitezis qismida topishmoqning javobiga ishora qiluvchi jumlalar berilgan va bu jumboqli vaziyatni yuzaga keltiradi, topguvchiga yo‘nalish beradi. Sintez qismida nimani topish kerakligi muallif nutqi orqali jumboqni umumlashtirgan holda kitobxoniga havola etadi.

Topishmoqlar jumboqning berilishiga ko‘ra quydagi turlarga ajratishimiz mumkin:

- 1.Tarkibi birgina savol(jumboq) va birgina javobdan iborat bo‘lgan topishmoqlar;
- 2.Tarkibi bir necha savol va unga mos tarzda bir necha javobdan iborat bo‘lgan topishoqlar.

Tursunboy Adashboyevning yuqoridagi topishmog‘i ikkinchi turga mansub bo‘lib, tarkibida ikki savol va ikki javob mavjud. Abdurahmon Akbarning “Adabiy topishmoqlar”i ustoziga izdosh sifatida va o‘ziga xos tarzda yaratilgan bo‘lib, tarkibida bir necha jumboq (shoir

va nosirlar ismi, familiyasini topish) hamda unga mos tarzda bir necha javobdan iborat. Ijodkor topishmoqlarning xos xususiyatlaridan yana biri, topishmoq tarkibida savol so‘zlar deyarli ishlatilmaydi, kitobxon she’rning ma’nosidan qanday vazifa qo‘yilganini topib oladi. Odadta bolalar shoirlari tomonidan yaratilgan topishmoqlar qolipi quyidagicha: “Buni toping qizlarim”, “Bu nima, qizim yulduz?”, “buni top” kabi jumlalar yoki nuqtalar o‘rnini to‘ldirishdan iborat bo‘lar edi. Shoirlar esa an’anaviy qolipdan chekinib, yangicha poetik usul yarata olgan. Bolalarning sevimli shoirlaridan biri bo‘lgan Po‘lat Mo‘min qalamiga mansub “Bolajon, bolajonim” kitobiga kiritilgan topishmoqlarning aksari nuqtalar o‘rnini to‘ldirish asosida yaratilgandir.

“Tezda top javob” nomli topishmoqlar hajmi ham ancha salmoqli.

Juda sevamiz uni,
Xilma-xildir mazmuni.
Bo‘lmasa ham muallim,
Bera oladi ta’lim.
U barchaning ulfati,
Bo‘lar ba’zan surati.
Qani o‘rtoq buni top,

Eslagan der bu (kitob)Topishmoq 8 misradan iborat bo‘lib, qofiyalanishi ham o‘zgacha, har baytdagi misra o‘zaro qofiyalangan: a - a, b - b, s - s, d - d kabi. Topishmoqning javob qismida an’anaviy tarzda “Qani, o‘rtoq, buni top!” iborasi keltirilgan, javob qismi “Eslagan der bu ...” murojaat shaklida bo‘lib, she’r matnidagi tavsifdan va she’r ritmidan nuqtalarda yashiringan jumboqni topish mumkin. Oxirgi satrda javobga ishora aks etgan.

REFERENCES

1. Sharipova M. ЭПОСА "АЛПОМИШ"-ИСТОЧНИК НАРОДНОГО ВОСПИТАНИЯ, ВЕДУЩИЙ ПОКОЛЕНИЕ К СОВЕРШЕНСТВУ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2022. – Т. 12. – №. 12.
2. Sharipova M. B., Muslimova L. M. Q. XALQ DOSTONLARINI O’RGATISHNING AMALIY AHAMIYATI HAMDA DOLZARBLIGI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA) //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1130-1134.
3. Sharipova M. B. Xursand Nuriddinovna Mirzayeva XALQIMIZ MADANIYATINING HAYOTBAXSH SARCHASHMASI //Scientific progress. – 2021. – №. 7.
4. Sharipova M. B. Gulshoda Fazliddin Qizi Ravshanova QAHRAMONLIK DOSTONLARINING O’ZIGA XOSLIGI: MILLIY RUH VA AN’ANALAR //Scientific progress. – 2021. – №. 7.
5. Шарипова М.Б., Нематова Ш.Н. ФОРМИРОВАНИЕ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ ВОСПИТАНИКОВ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ // Вестник магистратуры. 2020. №3-3 (102). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/formirovanie-esteticheskoy-kultury-vospitannikov-doshkolnyh-obrazovatelnyh-uchrezhdeleniy> (дата обращения: 07.10.2022).
6. Шарипова М. Б., Сайдуллаева М. Модульное обучение в системе образования //Вестник магистратуры. – 2019. – №. 4-3. – С. 72.

7. Sharipova M. B., Marg'Uba Fazliddin Qizi Jomurodova X., IFODASI D. S. M. B. Scientific progress. 2021. № 7 //URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/xalqdostonlarida-sovchilik-marosimi-badiiy-ifodasi-alpomish-dostoni-misolida> (дата обращения: 22.12. 2021).
8. MA'NAVIY Y. A. R. V. A., O'RNI D. B. Q. E. DOI: 10.53885/edires. 2021.17. 14.046 Sharipova Maxbuba Baxshilloyevna BuxDU //Maktabgacha ta'lism.
9. Sharipova, Maxbuba Baxshilloyevna. "Gulasal Shavkat Qizi Farmonova NIKOHDAN SO'NG ADO ETILADIGAN URF-ODATLAR TASVIRI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA)." *Scientific progress* 7 (2021).
10. Sharipova M. B., Jalolova S. Z. Q. HOZIRGI MAISHIY TURMUSHDA O'Z O'RНИGA TO'LA EGA BO'LGAN MAROSIMLAR ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA) //*Scientific progress*. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1114-1119.
11. Шарипова М. Б., Сайдова Д. Х. К. Методы и средства использования национальных ценностей в духовно-нравственном воспитании детей в семье //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 3 (48). – С. 31-32.
12. Шарипова М. Б., Сайдова Д. Х. К. Методы и средства использования национальных ценностей в духовно-нравственном воспитании детей в семье //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 3 (48). – С. 31-32.
13. Baxshilloyevna S. M. et al. MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALAR MA'NAVIY DUNYOSINI BOYITISHDA "ALPOMISH" DOSTONING O'RNI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMUY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 146-152.
14. Шарипова М.Б., Хусаинова З.Х. ВОСПЕВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ГЕРОИЧЕСКОМ ЭПОСЕ // Вестник науки и образования. 2021. №16-2 (119). URL: [https://cyberleninka.ru/article/n/vospevanie-natsionalnyh-duhovnyh-tsennostey-v-geroicheskem-epose](https://cyberleninka.ru/article/n/vospевание-национальных-духовных-ценностей-в-героическом-епосе) (дата обращения: 07.10.2022).
15. Sharipova M. YOSH AVLOD RUHIY VA MA'NAVIY DUNYOSINI BOYITISHDA QAHRAMONLIK EPOSINING O'RNI: DOI: 10.53885/edires. 2021.17. 14.046 Sharipova Maxbuba Baxshilloyevna BuxDU, Maktabgacha ta'lism kafedrasi o'qituvchisi //Научно-практическая конференция. – 2021. – С. 116-117.
16. Sharipova, M. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQ O 'STIRISHNING ILMUY-NAZARIY AHAMIYATI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 35(35).
17. Baxshilloyevna, S. M., & Mirzoyevna, I. M. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA ETNIK MADANIY TA'LIM VA UNING TARIXIY ILDIZLARI. PEDAGOOGS jurnali, 1(1), 163-163.
18. Sharipova, M. B., & Salimova, K. R. Q. (2021). "ALPOMISH" DOSTONIDA "KAMPIR O'LDI" MAROSIMI TASVIRI. *Scientific progress*, 2(7), 1109-1113.
19. Шарипова, М. Б., & Нематова, Ш. Н. (2020). Формирование эстетической культуры воспитанников дошкольных образовательных учреждений. *Вестник магистратуры*, (3-3 (102)), 113-114.
20. Sharipova, M. (2020). Qahramonlik eposi-milliy madaniyatimizning nodir xazinasi ("Alpomish" dostoni misolida). ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 1(1).

21. Sharipova, M. (2020). ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРЯДОВ В ЭПОСЕ «АЛПОМИШ». ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu. uz*), 1(1).
22. Sharipova, M. (2024). Historical-Vital Bases of Epos And Ritual Expression (In The Example of the Epic “Alpomish”). ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu. uz*), 46(46).
23. Sharipova, M. (2023). MAKTABGACHA TA'LIMDA INNOVATSION FAOLIYATNI TASHKIL ETISH FUNKSIYALARI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu. uz*), 44(44).
24. Sharipova, M. (2024). EPOS HAMDA MAROSIM MUNOSABATINING QADIMIYLIGI VA AN'ANAVIYLIGI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu. uz*), 46(46).
25. Sharipova, M. B., & G'afurova, A. A. (2024). METHODOLOGY OF STAGING IN THE DEVELOPMENT OF CHILDREN'S SPEECH IN THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM. *THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD*, 3(1), 21-29.
26. Sharipova, M. (2023). O 'ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGIDA ALPOMISHSHUNOSLIK TA'LIMOTI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu. uz*), 44(44).
27. Sharipova, M. (2023). MAKTABGACHA TALIM YOSHDAKI BOLALARING IJODIY QOBILIYATLARI VA UNI SAMARALI RIVOJLANTIRISH OMILLARI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu. uz*), 44(44).
28. Sharipova, M. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA SAHNALASHTIRISH, O'YIN FAOLIYATINI TASHKIL ETISH YO'LLARI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu. uz*), 44(44).
29. MA'NAVIY, Y. A. R. V., & O'RNI, D. B. Q. E. DOI: 10.53885/edinres. 2021.17. 14.046 Sharipova Maxbuba Baxshilloyevna BuxDU. *Maktabgacha ta'lism*.
30. SHARIPOVA, M. (2023). “ALPOMISH” DOSTONINI O'ZBEK VARIANTLARI ORASIDAGI MAROSIMLARNING BADIY TALQINI. *Journal of Research and Innovation*, 1(10), 45-52.
31. Baxshilloyevna, S. M. (2023). “ALPOMISH” DOSTONIDA SUNNAT TO ‘YI MAROSIMINING BADIY TALQINI. *Научный Фокус*, 1(2), 1091-1095.